

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov	
Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi	107
J.M.Hamrakulov	
“Tutorlik faoliyati asoslari” fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash.....	114
D.S.Abdugodirov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari	117
R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva	
Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili	120
G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv	123
O.X.Rashidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish	126
Z.D.Rasulova	
Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish	131
H.Э.Юлдашева	
Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания	136
Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов	
Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования	139
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli	145
M.I.Ne'matov	
Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	152
I.X.Turdiboyev	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar	160
	IQTISODIYOT
X.X.Бозаров	
Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики	164
	FALSAFA
N.S.Badridinova	
XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar	171
B.B.Dehqonov	
Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari.....	175
O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev	
Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati	180
I.J.Jabborov	
Shayx Najmiddin Kubro ruboiylarida ishq falsafasi	184
G.N.Navro'zova	
Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil	187
M.E.Xujamov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni.....	191
F.A.Ibroximov	
Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati	197



UO'K: 37.06/379.8

FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI HUQUQIY MADANIYATINING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА****THE IMPORTANCE OF THE LEGAL CULTURE OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY****Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li** 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada jamiyatni boshqarishning insoniyat o'ylab topgan eng samarali yechimi bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Mutaffakir olimlarning bu boradagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirish fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning asosi ekanligi, bu boradagi islohotlar ham bayon qilingan.

Аннотация

В статье раскрывается понятие гражданского общества, которое является наиболее эффективным решением управления обществом, придуманным человечеством, и его характеристики. Проанализированы мнения ученых-интеллектуалов по этому поводу. Также указано, что повышение правовой культуры населения является основой развития институтов гражданского общества, а также указаны реформы в этом направлении.

Abstract

The article reveals the concept of civil society, which is the most effective solution to managing society invented by humanity, and its characteristics. The opinions of intellectual scientists on this matter are analyzed. It is also indicated that improving the legal culture of the population is the basis for the development of civil society institutions, and reforms in this direction are also indicated.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, huquqiy ko'nikma, faol fuqarolik pozitsiyasi, taraqqiyot strategiyasi, yoshlar tarbiyasi, tarixiy tajriba, o'zaro ijtimoiy hamkorlik g'oyasi, inson huquqlari, yoshlar parlamenti.

Ключевые слова: правовая культура, правовые навыки, активная гражданская позиция, стратегия развития, образование молодежи, исторический опыт, идея взаимного социального сотрудничества, права человека, молодежный парламент.

Key words: legal culture, legal skills, active citizenship, development strategy, youth education, historical experience, the idea of mutual social cooperation, human rights, youth parliament.

KIRISH

Fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyoti davomida erishgan jamiyatni idjora etishning eng samarali mexanizmi hisoblanadi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq bizning bosh maqsadimiz – erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy-demokratik davlat va odil fuqarolik jamiyatini barpo etish, deb e'lon qildik. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – bu ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"[1], deya ta'kidlagan edilar. Chindan ham tom ma'nodagi fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega insonlardan iborat jamiyatdir. Shu boisdan ham aholining huquqiy ongi va madaniyati, uni yuksaltirish borasidagi chora-tadbirlar bevosita fuqarolik jamiyatini qaror toptirish masalasi bilan o'zaro dialektik tarzda bog'langan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur masala doirasida olib borilgan va borilayotgan tadqiqotlar ham birmuncha salmog'dor. Xususan, O'zbekistonda huquqiy madaniyat masalalari bilan A.A.Azizxo'jayev, E.M.Abzalov, X.B.Boboyev, Z.M.Islomov, X.T.Odilqoriyev, E.Xalilov va boshqalar, shuningdek, fuqarolik jamiyatining ahamiyati, uni rivojlantirishning dolzarb jixatlari va mexanizmlari, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega jamiyat a'zolarini tarbiyalash masalalari bilan F.A.Musayev, O.T.Nasiriddinova, J.M.Abdullayev, T.B.Matibayev, J.Y.Mavlonov, Sh.N.Nazarov, U.E.Fazilov, X.T.Mamatov, A.I.Saitqosimov, M.B.Kadirov, A.A.Abdumalikov, S.SH.Saidov va boshqa olimlar izlanishlar olib borganlar.

Faylasuf olim M.Kadirov: "Fuqarolik jamiyati – bu yuksak insoniy qiyofaga ega bo'lgan jamiyat yoki yuksak darajada uyg'un hayot kechiruvchi erkin insonlar jamiyatidir", – deya ta'kidlaydi[2]. Chindan ham faqatgina huquqiy normalarga emas, balki ahloqiy normalarga ham ongli tarzda amal qilinadigan jamiyat tom ma'noda farovonlikka haqdor bo'ladi, deb ayta olamiz.

U.E.Fozilovning "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning nazariy va huquqiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida ilgari surilgan g'oya va qarashlar ham tahliliy yoritiladi.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJA

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning „Siyosat“ asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatlilik bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar XXII asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtirildi. XVIII asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari – „fuqarolar“ tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlarini bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyatining yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi. Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'l-atvor, xatti-harakatlar va qoida meyorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qadimgi madaniy tarixiy-huquqiy yodgorlik – Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloqiy meyorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'z-o'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Farobiyning „Fozil odamlar shahri“ asarida mamlakatni boshqarishda ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan qonun zarurligi, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiy fikriga ko'ra, „Shahar (mamlakat) aholisi xush-xulqqa ega bo'lmagan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi“, jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy-ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Uzoq tarixiy rivojlanish natijasida fuqarolik jamiyati terminini hozirgacha zamonaviy tushunish shakllandi. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyatda mulkchilik shakllarining xilma-xil va teng bo'lishi, mehnat va tadbirkorlikning erkinligiga yo'l qo'yilishi, mafkuraviy xilma-xillik va axborot erkinligi, inson huquq va erkinliklarining daxlsizligi, rivojlangan o'zini-o'zi boshqarish, madaniylashgan huquqiy hokimiyat bo'lishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi ta'minlanishi muhim hisoblanadi. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy an'ana bo'lsada, u butunlay yangi tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari va ko'p mingyillik milliy an'analarning sintezi sifatida dunyoga kelmoqda. Ya'ni erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiy faollik, hurriyat va qat'iy tartib-intizom uyg'unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.

Fuqarolik jamiyati uning a'zolari bo'lmish fuqarolar tomonidan rivojlantirilib boriladigan jamiyatdir. Bunday jamiyat o'zini-o'zi yuksak darajada tashkil etishi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo'lishi kerak, chunki davlat – fuqarolik jamiyatning „yollanma xizmatkori“. Davlat jamiyat tarkibidan ajralib chiqqan va ana shu jamiyatni boshqaruvchi, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy

FALSAFA

tashkilotdir. Zero, davlat fuqarolar, korxonalar va muassasalardan olinadigan soliqlar hisobiga mavjud bo'ladi. Mazkur jamiyat nafaqat o'zining siyosiy, madaniy hayotini, balki iqtisodiy, ijtimoiy hayotini ham boshqarib turadi. Hamma jamiyatni ham fuqarolik jamiyati deb bo'lmaydi. Fuqarolik jamiyati ancha yuksak darajadagi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichidir.

Fuqarolik jamiyatini qaror toptirishda huquqiy madaniyatning ahamiyati haqida fikr yuritib O.Nasiriddinova quyidagilarni ta'kidlaydi: "Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishdir. Mamlakatda demokratiyaning rivojlanishi, tartib va qonunchilikning mustahkamlanishi avvalo jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi, har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri anglashi va ulardan samarali foydalanishi, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishi va faoliyatida qonunga asoslanishi bilan belgilanadi"[3]. Bugungi yoshlar ertaga u yoki bu sohada yetakchi mutaxassisga hamda u yoki bu guruhlarni o'z atrofiga birlashtirgan rahbar xodimga aylanadi. Shu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar samarasi ana shu yoshlarga, ularning ongi, bilimi, e'tiqodi va amal qiladigan huquqiy, axloqiy qadriyatlariga bevosita bog'liqdir. Shuni teran anglagan holda bugungi jamiyatning har bir a'zosi kelajak avlodning munosib huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lib kamol topishida mas'ul ekanligini chuqur his qilishi talab etiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun erkinlashtirish, milliy qadriyatlar va an'analarni uyg'unlashtirish asosida "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" degan konseptual tamoyil asosida amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning samaradorligi esa aholining huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirish bilan bog'liq. Shu boisdan ham huquqiy madaniyatni oshirish davlat siyosati darajisidagi masala hisoblanadi. Mamlakatimizda bu boradagi islohotlarning huquqiy asosi bo'lib quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

1991-yil 20-noyabridagi "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun(Yangi taxriri 2016-yil 14-sentabr);

1997-yil 29-avgustdagi "Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi";

2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Prezident Farmoni hamda shu farmon asosida tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi";

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qarori va boshqalar.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat ijtimoiy ongning ajralmas va asosiy shakllaridan biri bo'lganligi bois, u shu jamiyatning farovonligi va mamlakat barqaror taraqqiyotining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shu munosabat bilan huquqiy madaniyatni oshirish tizimiga barcha soha vakillarining ushbu jarayonda munosib ishtirokiga erishish talab qilinadi. Xususan, ta'lim maskanlari bilan birgalikda, ta'limni boshqarish va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari, turli jamoat birlashmalarining ham jalb qilinishi faoliyatning samarasiga xizmat qiladi, albatta. Huquqiy madaniyatni oshirish masalasiga bunday hamkorlikda yondashish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 6-fevraldagi PQ-2124-son qarori bilan tasdiqlangan dastur birinchi bandida ham o'z ifodasini topgan.[4]

2010-yil 12-noyabrda "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi" qabul qilindi. Ana shu konsepsiya asosida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda aholining huquqiy madaniyatini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi PQ-2124 qarori bilan O'zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturida 6 bob va 67 ta band doirasida muayyan chora-tadbirlar belgilandi va amalga oshirildiki, ular yoshlarning huquqiy savodxonligi yuksalishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yildagi 310-son qarori bilan tasdiqlangan hamda 5 bob, 58 bandni o'z ichiga olgan "2022-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi" asosida Yoshlarning bo'sh vaqti — yetakchining ish vaqti" tamoyili asosida yoshlar bilan "mahallabay" ishlash tizimini joriy etildi, Yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga doir ko'plab tadbirlar amalga

oshirildi, Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar bilan ishlash, Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish va Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash masalalari kengroq urg'u berildi.

Siyosiy partiyalar, ulardagi yoshlar qanoti faoliyati, kasaba uyushmalari va ularning faoliyati, mahalla boshqaruv tizimi, fuqarolarning turli birlashmalari faoliyatining takomillashib borishi – bu albatta ular a'zolarining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishi bilan bog'liq.

XULOSA

Fikrimizcha, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega insonni tarbiyalashda quyilagi jihatlariga yanada ko'proq e'tibor qaratish lozim:

- yoshlarni o'z mustaqil fikriga ega, sog'lom aqlga tayanib tafakkur qila oladigan,
- yondoshadigan, qat'iyatli, milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash;
- yangi normativ-huquqiy hujjatlar bilan muntazam tanishib borish ko'nikmasini shakllantirish;
- ilm olishni o'zining burchi hisoblaydigan dunyoqarashni shakllantirish;
- atrofdagi nohaqliklarga murosasiz kayfiyatni shakllantirish;
- zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;
- o'z Vatani tarixini va jahon tarixini puxta o'zlashtirish;
- turli mafkuraviy ta'sirlarning asl mazmunini teran anglaydigan, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxslarni tarbiyalash va boshqalar.

Bu boradagi ishlarni kechiktirishga aslo haqqimiz yo'q, zero 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni ko'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi.[5]

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1997. – Б.173.
2. Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari // Dis-2020/74-38. Samarqand -2019. 249 b.
3. Kadirov M.B. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning obyektiv va subyektiv omillari // Diss-2020/68-84. Aftoreferat. Toshkent – 2019. 161 b 3-bet
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Н Пқ-2124 Қарори (norma.uz)
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон” нашриёти – 2021. 70 бет.
6. Абу Рейхан Бируни. Канон Маъсуда. Книги I-IV //Избранные произведения. Т. V.-Тошкент: фан, 1973-74
- с
7. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi.“O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -T.: Adolat 2011, 7-b
8. X.T.Mamatov. “Huquqiy madaniyat va O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari” 12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi; siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi Shifr: Dis-878/2012
9. Баратов М., Кулдашев Н. Жамоат хавфсизлигини давлат-хусусий шериклик асосида таъминлаш истиқболлари. ILD:01 NASHR:06 2022 yil Жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шериклик page 1 siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar/
10. M.A.Atavullayev. “Jamiyatni modernizatsiyalashda huquqiy qadriyatlarining o'rni”. 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (huquq falsafasi)./ Shifr: Dis-2020/68-30-2019.
11. F Ibrohimov. Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy qarashlari xususida. - Conferencea, 2022